Biroq huquqiy munosabatlar subyektlarining, xususan, huquqni suiiste'mol qilish belgilari doirasiga kiruvchi xatti-harakatlarini tavsiflashda insoflilik tamoyilining mohiyati faqatgina huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining boshqa shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini inobatga olishi hamda ularni amalga oshirishda yordam koʻrsatish majburiyati bilangina cheklanmaydi.

Insoflilik, shuningdek, har bir tarixiy bosqichda jamoat munosabatlari rivojlanishining oʻziga xos xususiyatlari bilan belgilanadigan erkinliklar va manfaatlarni amalga oshirish chegaralarini anglash, majburiyatlarni bajarishdagi axloqiy mas'uliyat, boshqa shaxsning insofliligi va burchga sodiqligiga boʻlgan ishonch hamda "zarurat" mezonlariga muvofiq holda, nafaqat oʻz xatti-harakatlari, balki boshqa subyektlarning xatti-harakatlarini ham tanqidiy baholashga undovchi axloqiy toifa sifatida ham koʻrib chiqilishi lozim.

**Material va metodlar**

Tadqiqotning manbalari sifatida quyidagilar foydalanildi: qadimgi Rim huquqi manbalari, xususan, "bona fides" tushunchasi, rim yuristlari – Gay, Pavel, Modestin asarlari; Fransiya qonunchiligi: 1789-yilgi Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi hamda Fuqarolik kodeksi (Code Civil); Germaniya qonunchiligi: 1900-yilgi Fuqarolik kodeksi (BGB); Shveysariya qonunchiligi: 1907-yilgi Fuqarolik kodeksi; shuningdek, Rossiya, AQSh, Germaniya, Fransiya, Italiya, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Xitoy va Oʻzbekiston olimlarining huquqni suiiste'mol qilish muammosiga oid ilmiy tadqiqotlari (M.M. Agarkov, V.P. Gribanov, O.A. Porotikova, R. Pozner, K. Larens, F. Jeni, J. Karbone, O. Oqyulov va boshqalar).

Tadqiqot metodlari sifatida esa tarixiy-huquqiy tahlil, qiyosiy-huquqiy tahlil, nazariy tahlil, axloqiy tahlil hamda tizimli yondashuv asosidagi tahlil usullari qoʻllandi.

**Tadqiqot natijalari**

"Huquqni suiiste'mol qilish" hodisasi boʻyicha koʻplab tadqiqotlarda shunday fikr ilgari suriladiki, Rim huquqi jamiyat a'zolarining kundalik ehtiyojlarini hal etishga amaliy yoʻnaltirilgan boʻlishiga qaramay, ushbu tushuncha haqidagi dastlabki tasavvurlar aynan Qadimgi Rimda shakllangan. Bunga sabab xususiy mulkka oid ayrim masalalarni tartibga solishning oʻziga xos jihatlaridir. Masalan, qoʻshnilar oʻrtasidagi yer uchastkasidan foydalanish boʻyicha nizolarni hal etish yoki servitutlarni joriy etish kabi holatlar qonun bilan aniq belgilangan edi. Shu bilan birga, huquq dastlab "insofli va adolatli faoliyat" deb ta'riflanganini inobatga olish lozim. Bu holat huquqdan adolat va halollikka zid maqsadlarda foydalanish imkoniyati mavjud emasligini anglatadi. Bunday yondashuv esa Qadimgi Rim huquqshunoslarining huquq tizimni sogʻlom aql, ideal rasmiy mantiq va qat'iy davlat tartibiga asoslangan holda, fuqarolik-huquqiy munosabatlarning moslashuvchanligi bilan uygʻunlashtirish uchun intilishlari bilan chambarchas bogʻliqdir.

Masalan, rimlik huquqshunos Pavelning "Nullus videtur dolo facere, qui jure suo utitur" ("Oʻz huquqidan foydalangan shaxs aldov bilan ish koʻrgan deb hisoblanmaydi") degan qoidasi bu yondashuvning yorqin namunasidir, chunki u huquqiy cheklovlar doirasidagi faoliyatni zarar sifatida talqin qilishdan bosh tortishni ta'kidlaydi. Shu sababli bunday yondashuv Qadimgi Rim huquqining axloqiy tushunchalarga asoslanganligi faktini inkor etmaydi, chunki bu tushunchalar aynan shu davrda shakllana boshlagan.

Xususan, rim huquqida "bona fides" (toza vijdon) tushunchasi yuzaga kelgan. Keyinchalik u koʻplab huquqiy tizimlar tomonidan "halollik" yoki "insoflilik" prinsipi sifatida qabul qilinib, huquqni suiiste'mol qilishni tasniflashda muhim ahamiyat kasb etdi. Misol tariqasida, agar bir shaxs oʻziga tegishli yer uchastkasida quduq qazib, qoʻshnisining suv manbayini quritib yuborsa, bu Rim huquqida "bona fides"ga zid deb emas, balki servitut yoki qonun bilan belgilangan cheklovlarning buzilishi sifatida koʻrilgan boʻlardi. Shu tariqa Rim huquqi "huquqni suiiste'mol qilish"

masalasida asosiy zamin yaratgan boʻlib, uning ta'siri zamonaviy huquqiy konsepsiyalarda ham davom etmoqda. Chunki u "bona fides" [5] (toza vijdon/halollik) tushunchasi orqali shartnomaviy va mulkiy munosabatlarda insoflilikni ta'minlaydi. Ushbu prinsip Germaniya Fuqarolik kodeksining (BGB) 242-moddasida "Treu und Glauben" (hallollik va ishonch) shaklida qabul qilingan boʻlib, huquqni suiiste'mol qilishning oldini olishda muhim mezon hisoblanadi.

Shuningdek, mulk egasining huquqi (dominium) mutlaq deb tan olinsa-da, u qonun bilan belgilangan cheklovlar [6], masalan, servitutlar doirasida amalga oshiriladi. Fransiya Fuqarolik kodeksining (Code Civil) 544-moddasida bu prinsip "qonun bilan taqiqlanmagan doirada" degan ibora bilan ifodalanib, mulk huquqining erkinligi va ijtimoiy manfaatlar uygʻunlashuviga asos boʻlgan. Shu bilan birga, "kelishuvlar bajarilishi kerak" (Pacta Sunt Servanda) [7] gʻoyasi shartnomalarning oʻzgarmasligini ta'minlab, Xalqaro shartnomalar huquqidagi Vena konvensiyasining (1969) 26-moddasida insofli bajarish talabi sifatida qabul qilingan va huquqni suiiste'mol qilishga qarshi asosiy mezon hisoblanadi. Bundan tashqari, zarar yetkazish (delictum) uchun javobgarlik konsepsiyasi [8] huquqni suiiste'mol qilish oqibatlarini tartibga soluvchi asos sifatida Oʻzbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 985-moddasida zarar uchun kompensatsiya talab qilish huquqi shaklida oʻz aksini topgan.

I.Y. Karlyavinning tadqiqotlarida ta'kidlanishicha, qadimgi Rimda "fides" (ishonch) va "bona fides" (toza vijdon/halollik) tushunchalari huquqiy munosabatlarning asosini tashkil etgan. Bu tushunchalar inson sha'ni, va'daga sodiqlik, oʻziga va boshqalarga hurmat hamda va'dalarga ishonish kabi axloqiy qadriyatlarga tayangan. Rim jamiyatida huquq bilan axloqning muhim uygʻunligini koʻrsatgan bu prinsiplar toʻliq anglanmay yoki qadrlanmay qolganda esa aldov va xiyonat orqali huquq suiiste'mol qilinib, axloqiy asoslar buzilgan hamda jamiyatda ishonch va tartibga zarar yetgan [9].

Masalan, agar bir rimlik savdogar oʻz sherigi bilan mol yetkazib berish borasida shartnoma tuzsa va va'dasiga xilof ravishda molni yetkazmasa, bu nafaqat huquqiy qoidani buzish, balki "bona fides"ga putur yetishi hisoblanib, oʻzaro ishonchga ziyon keltirgan.

Y.Y. Usolsevning huquqni suiiste'mol qilishning tarixiy-nazariy tahlilida qayd etilishicha, qadimgi Rimda mulk munosabatlari murakkablashib borgani sayin "oʻz huquqidan foydalangan hech kimga zarar yetkazmaydi" (neminem laedit qui suo jure utitur) tamoyilining oʻrnini mulk egalarining huquqlarini maqsadli ravishda cheklash zarurati haqidagi gʻoyalar egallaganligi asosli xulosa sifatida keltiriladi. Dastlabki davrda ustuvor boʻlgan mutlaq huquq tamoyili jamiyat rivojlanishi va mulk munosabatlarining murakkablashishi bilan mulk egalarining oʻz huquqlarini suiiste'mol qilish holatlarining koʻpayishiga olib keldi. Bu esa Rim yuristlarini "bona fides" (insofli vijdon) tushunchasini rivojlantirishga undadi. Bu esa, oʻz navbatida, huquq subyektlari oʻz huquqlarini amalga oshirishda insofli va adolatli boʻlishlari, boshqalarga zarar yetkazishdan saqlanishlari kerakligini anglatar edi.

Rim yuristlarining "bona fides" tushunchasiga oid qarashlarining takomillashuvi shaxslar tomonidan oʻz huquqlarini amalga oshirish jarayonini chuqur anglab yetishlari va boshqalarga zarar yetkazish maqsadida "huquqiy ustunlik"dan qasddan foydalanishning oldini olishga qaratilgan tasavvurlarning shakllanishiga muhim zamin yaratdi [10]. Shu tariqa rim huquqining rivojlanishi mutlaq huquqdan insoflilik va adolat tamoyillariga oʻtish bilan belgilandi, bu esa huquqni suiiste'mol qilishga qarshi kurashning shakllanishiga olib keldi va rim huquqining keyingi rivojlanishi hamda zamonaviy huquqiy tizimlarning shakllanishiga katta ta'sir koʻrsatdi.

Shunday qilib, Qadimgi Rimda subyektiv huquqlarni qasddan suiiste'mol qilishni chek-


E-ISSN2181-1148
ISSN 2181-919X

lovchi ba’zi qoidalar paydo bo‘ldi va bu qoidalar Gay (II asr) ta’limotida o‘z ifodasini topdi. Masalan, u “Qonuniy sababsiz o‘z qullariga nisbatan ortiqcha shafqatsizlikka yo‘l qo‘yilmaydi” [11] deb, huquqiy cheklovlarning dastlbaki shakllanishini ko‘rsatdi. Gerenniy Modestin (III asr) esa “Qonun ma’nosi yoki adolat rahm-shafqat odamlar manfaati uchun joriy qilingan narsani hech qachon shafqatsiz talqin bilan odamlar farovonligiga qarshi zo‘ravonlikka aylantirishga yo‘l qo‘ymaydi” [12] deb, huquqning insonparvarlik maqsadlariga xizmat qilishi lozimligini ta’kidladi.

Rim imperiyasi parchalangandan so‘ng shaxsiy huquqlarni amalga oshirish orqali boshqalarga zarar yetkazish mumkinligi haqidagi tushunchalarning rivojlanishi to‘xtab, pasayishga yuz tutdi. Bu V–IX asrlarda Frank davlatida huquqning, asosan, varvar qabilalari urf-odatlariga tayangani va qabiladan tashqaridagilarning deyarli huquqsiz bo‘lgani bilan bog‘liq edi. Natijada subyektiv huquqlarni tushunish va ularni qasddan qo‘llash to‘g‘risidagi tasavvurlarni shakllantirish qiyinlashdi. Shu bilan birga, Frank davlatida shartnomaviy munosabatlarni tartibga solishda halollik (bona fides) tamoyili asos qilib olindi. Bu tamoyil Qadimgi Rimdan zamonaviy davrgacha huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining xatti-harakatlarini baholashda muhim o‘rin tutdi.

Ilmiy manbalarda varvar davlatlari rim huquqini butunlay chetga sura olmagani va huquqiy tizimlarning sintezi boshlangani ta’kidlanadi. Masalan, M.A. Polyakovning aytishicha, “ilk o‘rta asrlarda Rimning “bona fides” odati nizolarni hal qilishda qo‘llanib [13], muomala ishtirokchilarining majburiyatlarga rioya qilishi, aldov va hiyla-nayranglardan saqlanishini ta’minlashga xizmat qilgan” [14]. Shunday qilib, huquqni suiiste’mol qilishga oid maxsus hujjatlar bo‘lmasa-da, V–IX asrlar Frank davlatida halollik tamoyiliga e’tibor berilgan holda, huquqlarni amalga oshirish zarurati haqida muayyan tushuncha saqlanib qolgan edi.

Huquqni suiiste’mol qilish (abus de droit) to‘g‘risidagi ilmiy konsepsiyalar XVIII asrda qonunchilikda rasmiy shakllanib, kodifikatsiyalangan deb qaralsa-da, uning axloqiy-falsafiy asoslari XVII asr oxirida Jan Doma (Jean Domat, 1625–1696) asarlarida “halollik” (bona fides) tushunchasi orqali ilk bor ifodalana boshlagan. Jan Doma o‘z ishlarida huquqiy munosabatlarda adolat va axloqiy tamoyillarga rioya qilish zarurligini ta’kidlab, bu g‘oyalarning keyinchalik Fransiya qonunchiligida, xususan, XVIII asrdagi huquq rivojida muhim o‘rin tutishiga zamin yaratgan. Bu esa huquqni suiiste’mol qilish tushunchasining axloqiy negizi shakllana boshlagan dastlabki bosqichlarini ko‘rsatadi va uning huquqiy tizimdagi keyingi shakllanishiga ta’sirini tahlil qilish imkonini beradi.

J. Doma o‘z ishlarida shartnomalar tuzishda adolat va yaxshi axloq (bona fides) prinsipining muhim ahamiyatga ega ekanligini uqtiradi va buni “ushbu bitimlarning o‘ziga xos tabiatidan kelib chiqadigan talab” deb baholaydi. U qonun va huquqiy munosabatlarning axloqiy, etnik va diniy asoslarga tayanishi zarurligini ta’kidlaydi. Ushbu yondashuv XVIII–XIX asrlarda Fransiyada “huquqni suiiste’mol qilish” (abus de droit) konsepsiyasining shakllanishi va rivojlanishiga asos bo‘lib xizmat qildi [15]. Huquqshunoslar “shikana” (chicane) tushunchasini ishlab chiqib, huquqdan boshqalarga zarar yetkazish maqsadida foydalanishning oldini olishga intildilar. Fransiyada bu jarayon 1789-yilgi Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasida ifodalangan “erkinlik boshqaga zarar yetkazmasligi kerak” tamoyilidan boshlangan edi. XIX asrning so‘nggida R. Saleyl Fransiya Fuqarolik kodeksiga “shikana”ni taqiqlovchi norma kiritishni taklif qildi [16].

Belgiyalik mutafakkir Fransua Loran ushbu muammoni chuqur tahlil qilib, terminologik bahslarning kuchayishiga sababchi bo‘ldi. V.O. Abolonin esa “abus de droit” tushunchasining Fransiya ta’siri orqali Yevropa huquqiy tizimiga tarqalganini qayd etdi [17]. A.A. De-

bosheva va O.A. Porotikova oʻz tadqiqotlarida Prussiyada 1794-yilgi Yer nizomida “qoʻshni qurilishi” qoidasi orqali huquqni suiisteʼmol qilishning ancha erta davrlardayoq cheklanganini koʻrsatdilar [18]. Fransiya tajribasi esa huquqning foydasiz yoki zararli maqsadlarda qoʻllanishiga qarshi kurash nuqtayi nazaridan Yevropa huquqiy anʼanalariga sezilarli taʼsir koʻrsatdi.

J. Doma tomonidan ilgari surilgan yondashuv huquqiy munosabatlarning axloqiy asoslarga suyanishi kerakligiga urgʻu berib, shartnomaviy munosabatlardagi adolat va yaxshi niyat (bona fides) tushunchalarining fundamental ahamiyatini koʻrsatadi. Bu nuqtayi nazar qonunning faqat formal normalar toʻplami emas, balki jamiyatdagi axloqiy va maʼnaviy qadriyatlarni aks ettiruvchi tizim sifatida qaralishi kerakligini anglatadi. Ushbu fikr XVIII–XIX asrlarda Fransiyada “abus de droit” gʻoyasining paydo boʻlishiga zamin yaratdi, bu esa, oʻz navbatida, huquqning zararli maqsadlarda qoʻllanishiga qarshi kurash vositasiga aylandi.

“Shikana” konsepsiyasining joriy etilishi huquqiy amaliyotda muhim oʻzgarishlarni keltirib chiqardi. Bu tushuncha huquqdan noqonuniy foydalanishning oldini olishga qaratilgan boʻlib, uning asosiy maqsadi boshqalarga zarar yetkazish niyatini aniqlash va cheklash edi. Fransiyada bu jarayon 1789-yilgi deklaratsiyada belgilangan erkinlik va adolat prinsiplari bilan uzviy bogʻliq boʻlib, ushbu hujjatda “erkinlik faqat boshqalarga zarar yetkazmagandagina mavjud” [19] degan tamoyil qonunchilikning axloqiy negizi sifatida xizmat qildi. R. Saleylning XIX asr oxiridagi taklifi esa bu gʻoyalarni Fuqarolik kodeksida mustahkamlashga qaratilgan amaliy qadam boʻldi.

**Tadqiqot natijalari tahlili**

Fransua Loranning tadqiqotlari “abus de droit” tushunchasining terminologik va mafkuraviy rivojlanishida muhim rol oʻynadi. Uning ilmiy ishi Fransiya chegaralaridan tashqariga chiqib, butun Yevropa boʻylab huquqiy bahs-munozaralarni yuzaga keltirdi. V.O. Abolonin taʼkidlaganidek, bu konsepsiya Fransiyadan boshqa Yevropa huquqiy tizimlariga tarqalib, ularda oʻz ifodasini topdi, masalan, Prussiyada 1794-yilgi Yer nizomidagi “qoʻshni qurilishi” qoidasi bilan huquqni suiisteʼmol qilish ertadan man etilgani koʻzga tashlanadi. A.A. Debosheva va O.A. Porotikovaning tadqiqotlari esa bu jarayonning tarixan chuqur ildizlarini yanada aniqroq yoritib berdi.

Fransiya tajribasining Yevropa huquqiy anʼanalariga taʼsiri uning huquqni befoyda va zararli maqsadlarda qoʻllanishidan saqlashga yoʻnaltirilgan yondashuvida ayon boʻladi. Bu konsepsiya qonunlarning nafaqat texnik tomonlari, balki ularning jamiyat va axloqqa taʼsiriga eʼtibor qaratishni taqozo qildi. Shu sababli “abus de droit” gʻoyasi huquqiy tizimlarning taraqqiyotida muhim oʻrin egalladi va uning taʼsiri Fransiya bilan cheklanmay, butun Yevropa huquqiy madaniyatida namoyon boʻldi.

Huquqni suiisteʼmol qilish masalasi turli davlatlarda tadqiqot mavzusiga aylangan. Masalan, Shveysariya Fuqarolik kodeksi (1907) va Germaniya Fuqarolik kodeksi (1900) ushbu amaliyotni man qiladi. Shveysariya Fuqarolik kodeksining 2-moddasi “ochiq suiisteʼmol”ni cheklashga qaratilgan, lekin “ochiqlik” mezoniga aniq taʼrif berilmagan. Bu holatni Oygen Xuber (1849–1923) qasddan yoki ehtiyotsizlik bilan zarar yetkazish deb talqin qiladi va uning fikricha, “bu sud amaliyotida keng qoʻllanishi mumkin” [20]. Shu bilan birga, “halollik” mezonining mukammal ishlab chiqilmagani sudyalarning subyektiv baholashlariga yoʻl ochishi mumkinligi taʼkidlanadi.

Shveysariya qonunchiligi suiisteʼmol tushunchasining doirasini kengaytirib, sudlarga yangi meʼyorlarni shakllantirish imkonini beradi. Bu yondashuv axloqiy qadriyatlar va jamiyatdagi munosabatlar bilan chambarchas bogʻliqdir. Oygen Xuber “halollik”ni jamiyatda shaxsiy va umumiy manfaatlar oʻzaro

moslashuvi deb aniqlaydi, bu esa ushbu tushunchaning ijtimoiy-axloqiy muhimligini ochib beradi. Natijada davlat va huquq tizimining taraqqiyoti jarayonida bu qarashlar evolyutsiyaga yuz tutib, oʻzgarishlarga moslashadi.

Shveysariya qonunchiligidan farqli oʻlaroq, Germaniya Fuqarolik kodeksi (1900) dastlab mulk huquqini amalga oshirishda “shikana” va qoʻshnichilik manfaatlariga doir boshqa cheklovlarni taqiqlash bilan cheklangan edi. Germaniya qonun chiqaruvchilari mulk huquqiga oid nizolarni, ayniqsa, yaqin joylashgan yer uchastkalari yoki turar joy mulkdorlari oʻrtasidagi kelishmovchiliklarni huquqni suiisteʼmol qilishning asosiy sohasi deb qaragan. Masalan, qoʻshni uchastkaga zarar yetkazuvchi baland devor qurish kabi holatlar shular jumlasiga kirgan. Keyinchalik, qonun islohoti jarayonida “shikana”ni taqiqlovchi normalar Germaniya Fuqarolik kodeksining umumiy qismiga kiritilib, huquqni suiisteʼmol qilish doirasi kengaytirildi [11].

XX asrda Germaniya olimlari va qonun chiqaruvchilarining ushbu masalaga qarashlari oʻzgardi: sud amaliyotida “shikana” belgilariga ega harakatlarning niyat va motivlarini aniqlash zarurati yuzaga keldi. Bu esa huquq egasining xatti-harakatlarini faqat qonun doirasida emas, axloq nuqtayi nazaridan ham baholash talabini koʻrsatdi. Masalan, agar bir shaxs oʻz mulkida qoʻshnisining erkin koʻrish manzarasini qasddan yopish maqsadida devor qursa, bu harakat nafaqat qonunan taqiqlangan, balki axloqan ham qabul qilinmaydigan deb topildi. Bunday yondashuv amaliyotda murakkabliklar keltirib chiqarsada, huquq subyektlarining xatti-harakatlarini tasniflashda axloqiy normalarning ahamiyati ortib bordi.

Buning sababi shundaki, huquqiy va axloqiy normalar har qanday tarixiy davrda jamiyatning barqarorligi uchun muhim asos boʻlib xizmat qiladi. Agar bir xatti-harakat tashqi jihatdan qonuniy koʻrinsa-da, lekin qoʻrquv, xudbinlik yoki boshqa yomon niyatlardan kelib chiqsa, u jamiyat uchun qiymatsiz boʻlib qoladi. Ushbu fikrni XIX asr nemis faylasufi E. fon Gartman (1842–1906) qoʻllab-quvvatlagan va u “axloqiy va huquqiy sohalar oʻrtasidagi chegara juda oʻzgaruvchan: har bir davrdagi huquqiy tuzum oʻzi uchun bu chekni belgilaydi va tarixiy rivojlanishda u oʻzgartirib boriladi” [21], deb taʼkidlagan edi.

Xorijiy tajribalar oʻrganilganda, huquqni suiisteʼmol qilishning mohiyatini belgilashdagi murakkabliklarga qaramay, mutaxassislar va amaliyotchilarning ushbu masalaga munosabati shaxsiy huquqlarni amalga oshirishda axloqiy poklik, adolat va halollikka eʼtibor qaratishga asoslanganini aytish mumkin. Bu fikrning boshlanishi Qadimgi Rim mutafakkiri Tatsit (I–II asrlar) tomonidan “yaxshi odat-axloq qonunlardan ustun turadi” [22] deb bayon qilingan va bu gʻoya keyingi asrlarda oʻz ahamiyatini yoʻqotmagan. “Yaxshi axloq” degan tushuncha jamiyatning hayot uslubi, maʼnaviy qadriyatlari va qabul qilingan anʼanalari bilan uzviy bogʻliq boʻlib, axloqiy normalar jamiyatning mafkuraviy oʻzgarishlari bilan birga takomillashib borgan. Davlat va huquq evolyutsiyasining turli davrlarida axloq toʻgʻrisidagi tushunchalar oʻzgargan boʻlsa-da, shaxsiy huquqlarni axloqiy asoslarga xilof ravishda qoʻllash hech qachon mumkin deb topilmagan.

Yevropa mamlakatlarida huquqni noqonuniy ishlatishning taʼrifi koʻpincha halollikka rioya qilish zarurligidan kelib chiqqan. Biroq “halollik” atamasi qonunlarda batafsil koʻrsatilmaganligi sababli uning maʼnosi boshqa qoidalarda, masalan, Fransiya Fuqarolik kodeksining 900-, 1131-, 1133-, 1172-, 1387-moddalarida yoki Germaniya Fuqarolik nizomining 138-, 826-paragraflarida “adolat” va “yaxshi axloq” kabi tushunchalar orqali ochib berilgan. Bu normalar huquqdan foydalanishda axloqiy meʼyorlarga muvofiqlikni taʼminlashga yoʻnaltirilgan.

**Xulosalar**

Umuman olganda, asrlar davomida turli mamlakatlarda huquqni suiisteʼmol qilish

haqidagi tushunchalar shaxsiy huquqlarning doirasi va halollikni axloqiy-huquqiy tushuncha sifatida talqin qilish bilan o'zgarib kelgan.

Huquqni suiiste'mol qilish masalasining tarixiy va zamonaviy tahlili shuni ko'rsatadiki, bu hodisa huquqiy tizimlarning rivojlanishida muhim o'rin tutib, uning mohiyati axloqiy va huquqiy normalarning uzviy bog'liqligida namoyon bo'ladi.

Qadimgi Rimdan boshlab Tatsitning "yaxshi axloq yaxshi qonunlardan ustun" degan g'oyasi orqali bu masala axloqiy asoslarga tayanib shakllangan bo'lib, "bona fides" (toza vijdon/halollik) tushunchasi shaxsiy huquqlarni amalga oshirishda adolat va insoflilikni ta'minlashning boshlang'ich mezoni sifatida xizmat qilgan. Bu prinsip Rim huquqida, masalan, Pavelning "o'z huquqidan foydalangan shaxs aldov bilan ish ko'rgan deb hisoblanmaydi" degan qoidasida aks etgan va keyinchalik Yevropa huquqiy tizimlarida, xususan, Fransiya, Germaniya va Shveysariya qonunchiligida rivojlanib, mustahkamlangan.

XVIII–XIX asrlarda Fransiyada "abus de droit" konsepsiyasining paydo bo'lishi va "shikana" tushunchasining joriy etilishi huquqni zararli maqsadlarda qo'llashga qarshi kurashda muhim bosqich bo'ldi. Jan Doma va Fransua Loran kabi mutafakkirlarning ishlarida axloqiy tamoyillarga asoslangan bu yondashuv 1789-yilgi deklaratsiyadagi "erkinlik boshqaga zarar yetkazmasligi kerak" qoidasi bilan qonunlashtirildi. Bu g'oya keyinchalik R. Saleyl tomonidan Fuqarolik kodeksiga kiritish taklifi bilan amaliy shakl oldi va Fransiya tajribasi Yevropa huquqiy an'analariga, jumladan, Germaniya va Shveysariya qonunchiligiga ta'sir ko'rsatdi. Masalan, Shveysariyada Oygen Xuber "halollik"ni shaxsiy va umumiy manfaatlar muvozanati deb talqin qilsa, Germaniyada "shikana" taqiqi mulk huquqidan umumiy normalargacha kengaytirildi, bu esa huquqning axloqiy bahosini kuchaytirdi.

M.M. Agarkov, V.P. Gribanov, O.A. Porotikova kabi rus olimlari hamda R. Pozner, K. Larens, F. Jeni kabi xorijiy mutaxassislar huquqni suiiste'mol qilishning mohiyatini ochishda halollik va adolat prinsiplarini asosiy mezon sifatida ko'radilar. Ularning tahlillari shuni ko'rsatadiki, bu hodisa nafaqat huquqiy, balki axloqiy muammo sifatida ham ko'rib chiqilishi kerak, chunki huquqdan foydalanish jamiyatdagi ma'naviy qadriyatlarga zid bo'lmasligi lozim. Masalan, E. fon Gartmanning "axloqiy va huquqiy chegara o'zgaruvchan" degan fikri huquqning tarixiy rivojlanishida axloq bilan munosabatining doimiy evolyutsiyada ekanligini ta'kidlaydi.

Xulosa qilib aytganda, huquqni suiiste'mol qilish masalasi tarixiy jarayonda axloqiy asoslarga tayanib shakllangan va bu asos zamonaviy huquq tizimlarida ham muhim o'rin tutadi. Uning mohiyatini to'liq anglash uchun huquqiy normalar bilan birga axloqiy me'yorlarni hisobga olish zarur, chunki huquq faqat formal qoidalar to'plami emas, balki jamiyatning adolat, halollik va vijdonlilik kabi fundamental qadriyatlarini aks ettiruvchi tizimdir. Shu sababli bu muammoni hal qilishda tarixiy tajribani tanqidiy tahlil qilish va axloqiy-huquqiy yondashuvni mustahkamlash orqali huquqiy munosabatlarda ishonch va adolatni ta'minlash mumkin.

## REFERENCES

1. Gribanov V.P. Osushchestvlenie i zashchita grazhdanskikh prav [Implementation and protection of civil rights]. Moscow, Statut, Publ. 2000, pp. 150–170.
2. Agarkov M.M. Obyazatel'stva po sovetskomu grazhdanskomu pravu [Obligations under Soviet civil law]. Moscow, Legal Publishing House of the People's Commissariat of Justice of the USSR, 1940, pp. 80–100.


E-ISSN2181-1148 ISSN 2181-919X

3. Porotikova O.A. Zloupotreblenie pravom v grazhdanskom prave Rossii [Abuse of rights in civil law of Russia]. Moscow, Volters Kluver, Publ. 2008, pp. 120–140.

4. Shchennikova L.V. Zloupotreblenie pravom: nekotorye aspekty teorii i praktiki [Abuse of Law: Some Aspects of Theory and Practice]. *Legislation*, 2002, no. 8, pp. 15–20.

5. Pokrovskiy I.A. Istoriya rimskogo prava [History of Roman law]. Moscow, Statut, 2004, p. 115.

6. Dozhdev D.V. Rimskoe chastnoe pravo [Roman private law]. Moscow, Norma, 1996, p. 220.

7. Novitskiy I.B. Rimskoe pravo [Roman law]. Moscow, Yurayt, 2018, pp. 180.

8. Sanfilippo Ch. Kurs rimskogo chastnogo prava [Course of Roman Private Law]. Moscow, BEK Publ., 2002, p. 310.

9. Karlyavin I.Yu. Metodologicheskoe znachenie kategoriy fides (sovest') i bona fides (dobraya sovest') v rimskom chastnom prave [The methodological significance of the category of fides (conscience) and bona fides (good conscience) in Roman private law]. *Lex Russica*, 2015, vol. 98, no. 1, p. 133.

10. Usoltsev E.Yu. Zloupotreblenie pravom: istoriko-teoreticheskoe issledovanie [Abuse of Law: A Historical and Theoretical Study]. *Ideas and Ideals*, 2021, vol. 13, no. 1, part 1, p. 114.

11. Porotikova O.A. Problema zloupotrebleniya sub''ektivnim grazhdanskim pravom [The Problem of Abuse of Subjective Civil Rights]. Monograph. *Current Monographs*, 2019, p. 57.

12. Gorbunov M.A. Printsipy rimskogo prava [Principles of Roman Law]. *Bulletin of the Moscow University of the Ministry of Internal Affairs of Russia*. 2009, no. 7, p. 141.

13. Polyakov M.A. Razvitie printsipa dobrosovestnosti v prave evropeyskikh gosudarstv v period ot Srednevekov'ya do sovremennosti [The development of the principle of good faith in the law of European states from the Middle Ages to the present day]. *Legal Science and Practice: Bulletin of the Nizhny Novgorod Academy of the Ministry of Internal Affairs of Russia*, 2012, no. 18. p. 202, 203.

14. Karpova A.M. Osobennosti stanovleniya i soderzhaniya instituta dobrosovestnosti v chastnom prave [Features of the formation and content of the institute of good faith in private law]. *Advocate*, 2013, no. 8, p. 45.

15. Sorokina Ye.A. Printsip dobrosovestnosti (bonne foi) v dogovornom prave Fransii [The principle of good faith (bonne foi) in French contract law]. *Legal Notes*, 2011, vol. 1 (24), pp. 114–123.

16. Kodirzoda T.K. Institut zloupotrebleniya sub''ektivnymi grazhdanskimi pravami: stanovlenie i razvitie v Zapadnoy Evrope i Rossii [The Institute of Abuse of Subjective Civil Rights: Formation and Development in Western Europe and Russia]. *The World of Politics and Sociology*, 2015, no. 11, p. 34.

17. Abolonin V.O. Deystvitel'no li zloupotreblenie pravom – eto upotreblenie prava vo «zlo»? [Is abuse of rights really the use of rights for "evil"?]. *Arbitration and Civil Procedure*, 2009, no. 2, p. 3.

18. Debosheva A.A. Istoriya vozniknoveniya i razvitiya zloupotrebleniya pravom [History of the emergence and development of abuse of law]. *TISBI Herald*, 2014, no. 2, p. 166.

19. Kolesnikov O.P. Predely sub''ektivnykh grazhdanskikh prav [Limits of subjective civil rights]. *Journal of Russian Law*, 2007, no. 12, p. 37.

20. Utyashev M.M., Utyasheva L.M. Vozmozhno li zloupotreblenie pravom? [Is it possible to abuse the right?]. *The Rule of Law: Theory and Practice*, 2010, vol. 3 (21), p. 17.

21. Pribitkova Ye.A. Iskusstvo dobra i spravedlivosti: ot E. Fon Gartmana k V.I. Solovyovu [The Art of Goodness and Justice: from E. von Hartmann to V.I. Solovyov]. *Soloviev Studies: Periodic Collection of Scientific Papers*, 2008, vol. 16, p. 134.

22. Shchennikova L.V., Bikova M.O. Kategoriya «dobrye nravy» v grazhdanskom zakonodatel'stve i tsivilisticheskoy doktrine zarubezhnykh stran [The category of "good morals" in the civil legislation and civilistic doctrine of foreign countries]. *Bulletin of Perm University*, 2011, vol. 2 (12), p. 153.

# YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI
# ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК
# REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

Правовой научно-практический журнал

Legal scientific-practical journal

**2025-yil 3-son**

VOLUME 9 / ISSUE 3 / 2025

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2025.9.3